

JINOYATCHI AYOLLAR SHAXSINI O'RGANISHNING KRIMINOLOGIK ASOSLARI



Dilshoda O'rinova Adxamovna

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyatchi ayollarning shaxsiy xususiyatlari kriminologik jihatdan o'rganilgan. Ayollar jinoyatchiligining o'sish sabablari, unga ta'sir etuvchi ijtimoiy va iqtisodiy omillar yoritilgan. Huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va zamonaviy kriminologik nazariyalar asosida tahlillar amalga oshirilgan. Maqolada jinoyatchi ayollar shaxsini o'rganishda ilmiy va amaliy yondashilgan.

Kalit so'zlar: Jinoyatchi ayollar, kriminologik tahlil, jinoyatchilik, gender, shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy omillar, iqtisodiy omillar, huquqbuzarlik, huquqiy tizim, statistik tahlil, jinoyat turlari, jinoyat sabablari, zo'ravonlik jinoyatlari, iqtisodiy jinoyatlar, huquqiy javobgarlik.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИЧНОСТИ ЖЕНЩИН-ПРЕСТУПНИЦ

Аннотация. В статье анализируются криминологические аспекты личностных характеристик женщин-преступниц, рассматриваются причины роста женской преступности, социальные и экономические факторы, влияющие на этот процесс. Проведен анализ правовых документов, статистических данных и современных криминологических теорий. Предложены научные и практические подходы к изучению личности женщин-преступниц.

Ключевые слова: женщины-преступницы, криминологический анализ, преступность, гендер, личностные характеристики, социальные факторы, экономические факторы, правонарушение, правовая система, статистический анализ, виды преступлений, причины преступности, насильственные преступления, экономические преступления, юридическая ответственность.

CRIMINOLOGICAL FOUNDATIONS OF STUDYING THE PERSONALITY OF FEMALE CRIMINALS

Abstract. This article analyzes the personality traits of female criminals and the criminological aspects of their study. It examines the reasons for the rise in female crime and the social and economic factors influencing this phenomenon. The research is based on the analysis of legal documents, statistical data, and modern criminological theories. The article suggests scientific and practical approaches to studying the personality of female criminals.

Keywords: female criminals, criminological analysis, crime, gender, personality traits, social factors, economic factors, offense, legal system, statistical analysis, types of crimes, causes of crime, violent crimes, economic crimes, legal liability.

Kriminologiya va jinoiy adolat tizimini nazariy va empirik tadqiqotlarida gender aspekti muhim metodologik yo'nalishlardan biri sifatida shakllanib, ijtimoiy jarayonlarning huquqiy va strukturaviy tahlilida markaziy o'rin egallamoqda.

Bir necha o'n yillar oldin jinoyatchilik asosan erkaklarga xos hodisa sifatida qaralgan va ayollarning bu jarayondagi ishtiroki deyarli inkor

etilgan. Natijada, ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar yetarlicha tadqiq qilinmagan, bu esa ushbu masala bo'yicha nazariy materiallarning yetishmovchiligiga olib kelgan. Tarixan kriminologlar ayollar jinoyatchiligini chetlab o'tgan va bu mavzu faqat uch asosiy jihatdan o'rganilgan: birinchidan, ayollarning erkaklarga qaraganda jinoyatlarga kamroq aralashishi; ikkinchidan, fohishalik bilan bog'liq tadqiqotlar;

uchinchidan, zo'ravonlik jinoyatini sodir etgan ayollarni axloqan buzilgan deb hisoblash [12; 9–36-b.].

Biroq, zamonaviy jamiyatda ayollar jinoyatchiligi ommaviy axborot vositalarining keng yoritishi natijasida dolzarb mavzuga aylanmoqda. So'nggi yillarda ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar soni ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bunga sabab sifatida ayollarning jamiyatdagi mavqeyi, oilaviy muhit va mehnat bozoridagi tengsizlik hamda turmush tarzining murakkablashuvi ko'rsatilmoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ta'siri ham muhim omil sifatida ko'riladi.

O'zbekiston sharoitida ham ayollar jinoyatchiligining o'sishi muayyan holatlarda kuzatilmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar umumiy jinoyatlar sonining nisbatan kam qismini tashkil etsa-da, ayrim toifadagi jinoyatlar, ayniqsa, iqtisodiy jinoyatlar va oilaviy muammolar bilan bog'liq huquqbuzarliklarda ayollarning ishtiroki sezilarli darajada ortib bormoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistonda har 100 000 ayoldan 12,3 nafari jinoyat sodir etgan. Bu xalqaro miqyosda past ko'rsatkich bo'lsa-da, ayrim qo'shni davlatlar bilan taqqoslaganda yuqoridir. Masalan, Hindistonda har 100 000 ayoldan 8 nafari jinoyat sodir etgan bo'lsa, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori: AQSHda 1154, Germaniyada 516, Tailandda 316 nafar. Ayollar jinoyatchiligining bunday tafovut bilan taqsimlanishi mamlakatlardagi huquqiy tizim, iqtisodiy sharoit va ijtimoiy omillarga bog'liq.

Taniqli kriminolog Auto Pollak (1950) o'z vaqtida ayollar jinoyatchiligini "yashirin jinoyat" deb atagan [5]. Uning yozishicha, ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ko'pincha aniqlanmay qoladi yoki yumshoqroq jazolanish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli ayrim mamlakatlarda ayollar jinoyatchiligining real darajasi rasmiy statistika-dan farq qilishi mumkin.

Huquqni muhofaza qilish organlari ma'lumotlariga ko'ra, ayollar tomonidan sodir etilgan qotilliklar O'zbekistonda umumiy qotillik jinoyat-

larning 7 foizini tashkil etadi. 2024-yilda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning asosiy qismini qotillik va qotillikka urinish, firibgarlik, hujum yoki to'qnashuv hamda og'ir jarohat yetkazish tashkil qilgan bo'lsa, iqtisodiy jinoyatlar ulushi ham yuqori ekani qayd etilgan. Xususan, O'zbekistonda ayollar jinoyatlarining 18,4 foizi firibgarlik va moliyaviy jinoyatlar, 12,5 foizi hujum yoki to'qnashuv, 9,8 foizi og'ir jarohat yetkazish bilan bog'liq. Bu raqamlarni boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda, masalan, AQSHda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning asosiy qismini iqtisodiy jinoyatlar va giyohvandlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar tashkil etsa, Germaniyada firibgarlik va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar yetakchi o'rinda turadi. Tailandda esa ayollar jinoyatchiligining asosiy sabablari orasida odam savdosi va noqonuniy migratsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar yuqori ulushga ega.

O'zbekistonda ayollar jinoyatchiligi yosh toifasiga ko'ra ham o'zgarib bormoqda. 18–30 yosh oralig'idagi ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar oxirgi yillarda 2 baravarga oshgan. Bu yosh toifasidagi jinoyatchilik iqtisodiy qiyinchiliklar, ijtimoiy bosim va oilaviy muhit bilan bog'liq ekanini taxmin qilish mumkin. Bundan tashqari, 2021-yilda 39 mingga yaqin ayol oilaviy zo'ravonlikdan aziyat chekayotgani haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilgan, bu esa oldingi yillarga nisbatan 2,5 baravar ko'p ekanligini ko'rsatadi.

Taqqoslashlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ayollar jinoyatchiligida zo'ravonlik va iqtisodiy jinoyatlar yetakchilik qilayotgan bo'lsa, rivojlangan davlatlarda iqtisodiy jinoyatlar va giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar ustunlik qiladi. Shu bilan birga, ayollar jinoyatchiligida yosh toifasi bo'yicha o'zgarishlar, ijtimoiy omillar va huquqiy tizim ta'siri muhim rol o'ynaydi.

Kriminologik tadqiqotlarda ayollar jinoyatchiligini tushuntirish uchun quyidagi to'rtta asosiy nazariy yondashuv ilgari suriladi:

- erkaklik (Masculinity) nazariyalari;
- imkoniyat (Opportunity) nazariyalari;
- cheklanganlik (Marginalization) nazariyalari;

– ritterlik (Chivalry) nazariyasi [6].

Kriminolog Freda Adler 1975-yilda chop etilgan «Sister in Crime: The Rise of a New Female Criminal» nomli kitobida ayollar jinoyatchiligining shakllanishi va o'sishini izohlab bergan. Uning fikriga ko'ra, ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar sonining ortishi ularning tabiati o'zgarishi bilan emas, balki ularda jinoyat sodir etish imkoniyatlarining ko'payishi bilan bog'liq. Adlerning fikricha, 1970-yillardan boshlab ayollarning jamiyatdagi faoliyati kengayib, gender rollari o'zgarishi natijasida ularning jinoyatlardagi ishtiroki ham ortgan [7; 1–30-b.]. Shuningdek, Adler ayollarning nafaqat jinoyatlardagi ishtiroki ortganini, balki ular sodir etayotgan huquqbuzarliklar yanada jiddiy va zo'ravon tus olganini ham ta'kidlaydi. Endilikda ayollar ilgari faqat erkaklar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni ham amalga oshirmoqdalar. U bu jarayonni quyidagicha izohlaydi: "1960-yillardagi gender tenglik harakati natijasida ilgari itoatkor deb hisoblangan ayollar ijtimoiy jihatdan yanada faol bo'lib, erkaklarga xos xatti-harakatlarni qabul qila boshladi" [8]. Bu o'zgarishlar ayollarning jinoyatchilikka bo'lgan yondashuvini o'zgartirib, ularning shaxsiyatida tajovuzkorlik, mustaqillik va kuch ishlatish kabi erkaklarga xos xususiyatlarni rivojlantirishiga sabab bo'ldi.

Erkaklik nazariyalari va biologik yondashuvlar. Ayollar jinoyatchiligini tushuntiruvchi eng qadimgi yondashuvlardan biri – bu "Erkaklik nazariyasi" bo'lib, u dastlab biologik nuqtai nazardan o'rganilgan. Ushbu yondashuvning asoschilaridan biri Cesare Lombrozo bo'lib, u «Biologik doktrina» nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan. Lombrozo ayollar tabiatan konservativ bo'lib, erkaklarga nisbatan kamroq jinoyat sodir etishlarini ta'kidlagan [10; 17–27-b.].

Lombrozo jinoyatchi ayollarni "erkaklarga o'xshash bosh suyagiga ega, tanasida ortiqcha tuklar mavjud bo'lgan va noan'anaviy jismoniy xususiyatlarga ega shaxslar" sifatida tasvirlagan [10; 17–27-b.]. Uning fikricha, ayollar jinoyatchiligi ularning oilaviy hayotdagi ijtimoiy roliga norozilik yoki jamiyatdagi o'zgarishlarga moslasha olmas-

lik bilan bog'liq [11]. Biroq, zamonaviy ilmiy qarashlar Lombrozoning biologik yondashuvini tanqid ostiga olmoqda. Bunga ikki asosiy sabab bor: birinchisi, nazariya gender jihatdan noxolis va stereotiplarga asoslangan [11]; ikkinchisi, agar erkaklik xususiyatlari jinoyatchilikning asosiy sababi bo'lsa, nega barcha erkaklar jinoyat sodir etmaydi? [7; 1–30-b.].

Psixologik va sotsiologik yondashuvlar. Zigmund Freydning "Penis envy" nazariyasi ham erkaklik nazariyalari bilan bog'liq. Freyd ayollarning jamiyatda erkaklarga nisbatan pastroq mavqega ega ekanligi sababli, ularning shaxsiyatida erkaklik xususiyatlarini egallash istagi kuchayishini ilgari surgan. Bu jarayon esa ba'zi ayollarning gender rollaridan chiqib, tajovuzkor xatti-harakatlarni amalga oshirishiga sabab bo'lishi mumkin. Klein esa ushbu fikrni rivojlantirib, ayollarning jinoyatlarga intilishini quyidagicha izohlaydi: "Ayollar erkaklik belgilarini qabul qilish orqali ijtimoiy mavqeyini oshirishga harakat qiladi" [12; 9–36-b.]. Ushbu g'oyaga ko'ra, ayollar erkaklarga xos xatti-harakatlarni egallash orqali jamiyatda o'zini tasdiqlashni maqsad qiladilar.

Zamonaviy tadqiqotchilar esa, gender rollari va ijtimoiy tarbiya jarayonlarining jinoyatchilikdagi o'rni haqida yangi nazariyalarni ilgari surmoqdalar. Ushbu yondashuvlarga ko'ra, ayollar va erkaklar o'rtasidagi farqlar biologik emas, balki ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'liq. Ya'ni, jamiyatdagi turli tarbiya jarayonlari erkak va ayollarning jinoyatlarga aralashish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollar jinoyatchiligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uni an'anaviy erkak jinoyatchiligiga mos nazariyalar asosida tushuntirish yetarli emas. Xalqaro tadqiqotlarda ilgari surilgan "Erkaklik nazariyasi" ayollarning jinoyatlarga aralashuvini ularning erkaklarga xos xususiyatlarni egallashi bilan bog'laydi. Biroq O'zbekiston sharoitida ayollar jinoyatchiligiga ijtimoiy-iqtisodiy bosim, oilaviy nizolar va gender tengsizlik kabi omillar ko'proq ta'sir qilmoqda. Ayrim ayollar iqtisodiy qiyinchiliklar yoki oilaviy mojarolar tufayli jinoyatga qo'l

